

MATEMATIKA DARSLARINING ÓZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdumannonova Dildor Abdufayyozovna

Abibula Meliya Nuriyevna

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani 46- maktabining o'qituvchilari

Annotatsiya: *Mazkur metodik tavsiyada umumta 'lim jarayonida matematikafani ahamiyati hamda darslarda qo'llaniladigan ba'zi interfaol metodlar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *matematika, o'qitimish, uzulkik, o'nlik, minglik, kesim, metod*

Kirish: Boshlanğich matematika kursi maktab matematika kursining tarkibiy qismidir. Shu sababli boshlanğich matematikani muvaffaqiyatli, ózlashtirish maktabda butun matematik ta'limni to'ğri yo'lga qóyishda asos bolishi tushunarli bólíb qoladi.

Snuni ta'kidlash kerakki, amaldagi boshlanğich matematika dasturi tuzilishi va mazmuni yo'q joydan yaratilmadi, balki tóplangan boy metodik merosdan va óqituvchilarning ilgor tajribasidan kelib chiqib, ma'lum izchillikni saqlagan holda yaratildi.

Ma'lumki, óquv predmeti ilgarigidek «Arifmetika» emas, balki, «Matematika» deb ataladi.

Fan nomining bunday ózgartirilishi bejiz emas: bu ózgarish ózida mazkur óquv predmetining mazmunini va tuzilishini ózgarishini aks ettiradi.

Matematika dasturining asosiy ózagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat bólíb, bu ózak atrofida algebra va geometriya elementlari birlashadi, bu elementlar arifmetika bilimlar tizimida tarkiban qóshilib, son, arifmetika amallar va matematik munosabatlar haqidagi tushunchalarining yuqoriq darajada ózlashtirilishida imkoniyat beradi.

Snunday qilib, boshlanğich matematika kursi óz tuzilishi býicha uch fanni óz ichiga olgan butun kursdir, unda arifmetik, algebralik va geometrik materialdan iborat qismlarni farq qilish kerak.

«Metodika»-grekcha sóz bólbi, «metod» degani «yól», «uslub» degan ma'nolarni anglatadi.

Matematika boshlanğich ta'lim metodikasining predmeti qóyidagilardan iborat:

1. Matematika óqitishdan kózda tutilgan maqsadlarni asoslash.

2. Matematika óqitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish.

3. Óqitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish.

4. Óqitish vositalarini darsliklar, didaktik materiallar, kórsatma-qóllanmalar va texnik vositalarni ishlab chiqish.

Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish.

Matematika óqitish metodikasi boshqa fanlar eng avvalo matematika fani ózining bazaviy fani bilan uzviy bog'liq. Matematika óqitish metodikasi umumiyl matematika metodikasiga bog'liq. Umumiyl matematika metodikasi tomonidan belgilangan qonuniyatlar kichik yoshdagi óqituvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda boshlanğich matematika óqitish metodikasi tomonidan ishlatiladi.

Boshlanğich matematika óqitish metodikasi pedagogika fani bilan uzviy boğılıq bólıb, uning qonuniyatlariga tayanadi. Matematika óqitish metodikasi bilan pedagogika orasida ikki tomonlama boğlanish mavjud. Bir tomondan matematika metodikasi pedagogikaning umumiý nazariyasiga tayanadi va shu asosda shakllanadi, bu hol matematika óqitish masalalarını hal qilishga metodik va nazariy yaqinlashishning bir butunligini ta'minlaydi.

Boshlanğich matematika metodikasi ta'limning boshqa metodikasi bilan boğılıq. Fanlararo boğlanishni tóğri amalga oshirish uchun óqituvchi buni hisobga olishi juda muhimdir.

Matematika boshlanğich kursi ham ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni hal qilishi kerak.

Matematika óqitishning asosiy vazifalaridan biri óquvchilarida hisoblash, ólchash va grafik kónikmalarning ma'lum aniq tizimini hosil qilishdan iborat.

Óquvchilar imkonı boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni ochishni, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishni órganishlari, shuningdek oğzaki va yozma xulosalar qilishni órganishlari kerak. Boshlanğich məktəb matematika dasturi xuddi shunda ýónaltırılgan, unda óqitishda nazariylik saviyasını oshirish ochiq oydin ifodalangan, nazariyani amaliyot bilan uzviy boğılıqlik roli sezildi.

Boshlanğich sinflarda óqitish tarbiya bilan uzviy boğlab amalga oshirilishi kerak. Boshlanğich matematikasining tuzilishi óziga xos xususiyatlariga ega.

1. Arifmetik materiallar kursning asosiy mazmunini tashkil qiladi. U natural sonlar arifmetikası, asosiy miqdorlar. Algebra va geometriya elementlari asosiy bólüm shaklida óqitilməsdən arifmetik materiallar bilan qóshib óqitiladi.

Asosiy qism

Birinci sinfdan boshlab o'quvchilarда nuqta, to'ğri chiziq va egri chiziq, to'ğri chiziq kesması haqida aniq tasavvurlarni tarkib topdirish kerak. «Nuqta» «To'ğri chiziq» tushunchaları geometriya kursining asosiy (ta'riflanmaydigan) tushunchalar.

Qalam uchining qoǵozdagı izi, bo`rning doskadagi izi nuqta haqida tasavvur beradi. Bo`r surtilgan ipni tarang tortib qo`yib yuborilsa u qoldirgan iz to`gri chiziq haqida tasavvur beradi. Chizgich yordamida ham, qoǵoz varagini buklab yoli bilan ham to`gri chiziq yasash mumkin.

Agar tarang tortilgan ip doskada to`gri chiziq izini qoldirgan bo`lsa endi shu ipni bo`shatib salqi holga keltirilsa, u qoldirgan iz egri chiziq haqida tasavvur beradi.

Kesma bilan o'quvchilar amaliy tanishadilar. Agar to`gri chiziqqa ikkita nuqta qo'yilsa, to`gri chiziqning chegarasi shu nuqtalardan iborat qismi to`gri chiziqning kesması yoki kesma deyiladi.

O'qituvchi qoǵozdan quyilgan har xil ko`rinishdagı, har hil rangdagı va har xil kattalikdagı uchburchaklardan foydalanıb, bolalarnı uchburchak bilan tanishtıradi. Umumiý uchga ega bo`lgan ikkita nurdan tashkil topgan geometrik shakl burchak deyiladi.

Uchta kesma va uchta nuqtadan tashkil topgan geometrik shakl uchburchak deyiladi.

Uchburchakning uchta tomoni va uchta burchagi borligi ko`rsatib tushuntiriladi.

Bunda o`quvchilar uch bu nuqta ekanini tomon esa kesma ekanini aniq tushunib olishlari muhimdir.

Shundan keyin bolalarni to`rtburchaklar, beshburchaklar va oltiburchaklar bilan tanishtirib boriladi.

Belgilarni (alomatlarni) ajratishga doir, ikki yoki undan ortiq shakllarni taqkoslashga doir, berilgan belgilari bo`yicha shakllarni bilishga doir bir qator mashqlarni bajarishda shakllar modellaridan foydalanish mumkin.

Geometrik shakllarning modellari yordamida shakllarni qismlarga ajratish va qismlardan yangi figuralar tuzishga doir, mashqlar tuzishga doir masalalar bilan bog`liq bo`lgan har xil topshiriqlarni bajarish mumkin. Bunday mashqlar bolalarning geometrik tasavvurlarini boyitadi, geometrik «sezgirlik»ni, fazoviy tasavvurni rivojlantirishga imkon beradi.

(II-v)


«Yuzlik» mavzusida geometrik material ustida ishlash usullari.

To`gri va noto`gri burchaklar. To`gri burchak modelini hosil qilish uchun har bir o`quvchi ixtiyoriy shakldagi qo`goz varagini to`gri chiziq bo`yicha buklashi so`ngra oldin hosil qilingan bukish chiziqining qismlari ustma ust tushadigan qilib yana bir marta buklashi kerak. Buklangan qo`goz ochiladi, tekislanadi va buklash chiziqlari bo`yicha to`rtga bo`linadi. Hosil bo`lgan qismlarning har biri to`gri bo`rchkning modeli bo`ladi.

Burchaklarni taqqoslash ko`nikmalarini hosil qilish, uchun bolalar mustaqil ravishda yetarlicha sonda mashqlar bajarishlari: kitoblardan, stoldan, doskadan va boshqa narsalardan to`gri burchaklarni topishlari kerak.

To`gri to`rtburchak modeli yordamida bolalar to`griturtburchanining hamma burchagi to`gri ekaniga ishonch hosil qilishlari to`rtburchakning qarama-qarshi tomonlarini buklash bilan ustma-ust tushirish yordamida esa ularning tengligi haqida xulosa chiqarishlariga erishish kerak. Tomonlari teng, bo`lgan to`grito`rtburchak kvadrat ekanligini ko`rsatmalilik asosida tushuntiriladi.

Geometrik figuralarni belgilashda lotin alfavitining (bosh) harflaridan foydalanishni talab qiladi.



Burchakni: a) uch yonida turgan bitta harf bilan belgilash mumkinligi aytiladi. «Burchak» so`zi «< belgi bilan almashtiriladi», masalan, «<A» bunday uchiga qo`yiladigan raqam bilan belgilash mumkinligi aytiladi.

b) uchta harf bilan belgilanishi mumkinligi shu bilan birga o`rtadagi harf har doim burchak uchida turishi kerakligi aytiladi. Masalan, < ABK yoki < KBA tasvirlangan.

O`quvchilarni aylana va «doira bilan tanishtirish ular ongida «doira» va «aylana tushunchalarni bir-biridan ajratishga bog`liq bo`lgan bir qator qiyinchiliklar bor.

Aylana chizish uchun oldin nuqtani belgilash va bu nuqtaga sirkul oyoǵi qo`yilishi aytildi. Sirkulning bir uchi qattiq mahkamlangan bo`lishi, shu uch hamma vaqt bir nuqtaning o`zida bo`lishi, bu nuqta aylana markasi deyilishi ta`kidlanadi. **Markaziy nuqtadan bir xil uzoqlikda yotgan nuqtalar yig`indisiga aylana deyiladi.**

Bolalar doira nimadan iborat ekanligini «payqab» olishlari uchun bunday topshiriq berish mumkin: sirkul bilan markazi O nuqtada bo`lgan aylana chizing,



doirani esa bo`yang. Ushbu ko`rinishdagi mashqlar bu jihatdan qimmatdir:

- a) doiraga tegishli nuqtalarni,
- b) aylanaga tegishli nuqtalarni,
- v) doiraga tegishli bo`lmagan nuqtalarni
- g). doiraga tegishli, ammo aylanaga tegishli bo`lmagan nuqtalarni ayting.

Aylananing chegaralangan qismi doira deyiladi.


Bolalar e'tiborini aylananing markazi shu vaqtning o`zida doiraning markazi ham ekaniga qaratish muhimdir. Shuningdek o`quvchilarga aylana markazi bilan aylanaga tegishli har qanday nuqta orasidagi masofa radius deb atalishi aytildi. Bolalar oyni bir aylananing radiuslari o`zaro tengligiga amaliy ishonch hosil qilishlari kerak.

(III-d) «Minglik», «ko`p xonali sonlar» mavzularida geometrik material ustida ishlash usullari.

«Minglik» mavzusida ilgari olingan malakalar asosan mustahkamlanadi. Jumladan, tanish geometrik shakllarni ayta olish, farq qila olish, katakli qoǵozga chizish va harflar bilan belgilash malakalari; kesmalarni taqqoslash, ko`pburchak perimetrini topish malakalari mustahkamlanadi.

«Ko`p xonali sonlar» mavzusida geometrik material butun kurs bo`yicha bir xil taqsimlangan. Birinchi darslarning o`zidan o`quvchilar o`zлari ilgari tanishgan geometrik figuralarning nomlarini, ularni harflar bilan belgilashni takrorlashadi. Shu yerning o`zida bolalarning ko`pburchak perimetri haqidagi tasavvurlarni umumlashtiriladi. Shu yerda o`quvchilar birinchi marta aylanani (doirani) 6 va 3 ta teng qismga bo`lish bilan tanishadilar.


Aylanani teng qismlarga bo`lish teng tomonli oltiburchak va uchburchak yasash bilan boglanadi.



4-sinfda shakllarning yuzlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish: Yuza o`lchovi birliklarni $\text{sm}^2 \text{ dm}^2 \text{ m}^2$, to`gri to`rburchak perimetri va yuzini topishga doir masalalar yechish.

Kub uch o`lchovda: bo`yi, eni va balandlikka ega. Kub oltita yoq bilan chegaralangan. Kubning har bir yoki kvadrat shakliga ega. Kubning hamma yoqlari o`zaro teng. Kubning 8 ta uchi bor. Hajmlarni o`lchash uchun kub birlik o`lchovi kiritilgan.

Kub qirrasining uzunligi bir metr bo`lsa, uning hajmi bir kub metr (kub m) deb qabul qilinadi yoki amaladi. Kub qirrasining uzunligi 1 smga teng bo`lsa bunday kubning hajmi bir kub santimetrik (1sm^3) deb amaladi. Kubning hajm formulası: $V=a^3$




Qirralari uzunligi formulası: $L=12*a$


To`gri burchakli parallelepiped haqida ham xuddi shunday tushuncha beriladi. Hajm formulası.

$$S=2(av+as+vs)$$

Qirralari uzunligi for:

$$L=4(a+v+s)$$






Xulosa

"Klaster" metodi. Klasterlarga ajratish – o'quvchilarga biror mavzu bo'yicha erkin va ochiq fikryuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod biror mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

To`gri to`rtburchakning 8 dmli bo`yini 2 smga uzaytirilgandan keyin uning yuzi 6 kv smga ortdi. Bu to`gri to`rtburchakning yuzi qanday edi.

8. Muzxonada parallelepiped shaklidagi muz bo`lagi bor. Agar 1 kub m muzning massasi 900 kg bo`lsa, bu muz bo`lagining massasini aniqlang.



9. Akvarium kub shaklida bo`lib, qirrasining uzunligi 70 sm ga teng. Uni 50 sm balandlikda suv bilan to`ldiriladi. Suv bilan to`ldirilmagan necha kub santimetr qoldi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang'ich ta'lif bo'yicha uzviylashtirilgan DTS Toshkent-2010 Yangiyo'l shahri, Samarqand ko'chasi, 44-uy
2. Madaliyev. M. Sahnada matematika.«O'qituvchi» , 1991
3. Bikbayeva.N. U. Matematika: Umumiylar maktablarining 4-sinfi uchun darslik.-T: «O'qituvchi» ,2010
4. Ahmedov M.,Mirzaahmedov M. Matematika: 4-sinf: Umumiylar o'rta ta'lif maktablari uchun darslik.-T; «Ma'rifat-Madadkor» ,2010
5. Bikbayeva N.I.,Yangiboyeva YE. Matematika:-2-sinf uchun darslik, 4-nashri.-T: «O'qituvchi» 2010.-240b
6. Bikbayeva N.I.,Yangiboyeva YE. Matematika:-3-sinf uchun darslik, 3-nashri..-T: «O'qituvchi» 2010.-288b
7. Matematika:4-sinf uchun darslik \ E. Yangiboyeva va boshqalar.-T. : «O'qituvchi» , 2002-288b
8. Omonov Boborahim. Yuz bilan yuzma-yuz. Qiziqarli matematika: Eng Quvnoq tirishqoq va bilimdon bolalar uchun. K. 1.-T.: «O'qituvchi» , 1995-80b

ILOVALAR:

